

## TALABALAR AQLIY INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIDA TRENING MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Norqulova Sevara O'roz qizi

**Qarshi davlat universiteti 3-kurs talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola talabalar aqliy intellektual rivojlanishiga xos psixologik trening mashg'ulotlarini tashkil qilish, o'tkazish hamda intellektual faoliyat, qaror qabul qilish, vaqtni taqsimlash, maqsadni aniqlash, mas'uliyatlilik kabi xususiyatlarning shakllanishiga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim tizimi, o'qituvchi, talaba, aqliy intellektual, psixologik xususiyat, pedagogik texnologiya, trening, bilim, ko'nikma.

Ta'lim tizimida ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi shaxslarning psixologik xususiyatlarini tizimli tahlil qilish ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim masalalardan biridir. Shu nuqtai nazardan qaraganda jamiyat takomillashuvining bosh omili barkamol, keng ko'lamlı, teran fikrlovchi, bilimdon yoshlarni shakllantirish bo'lib, har bir o'qituvchidan sifat jihatidan zamonaviy murakkab vazifalarni amalga oshirishni talab etadi.

Oliy ta'limda talabalik davrining asosiy xususiyatlari hisoblangan shaxsiy sifatning shakllanishi va aqliy intellektual salohiyatni oshirib borishdan iborat murakkab faoliyat tizimini amalga oshirishda yetakchi motiv beruvchi rolini mohirona bajarishi lozim. Bunday muvaffaqiyatli holatni amalga oshirishda talaba o'qituvchi bilan bevosita hamkorlik faoliyatini yanada mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda talabalarning ijtimoiy voqelik hodisalariga to'g'ri baho bera olishlari, ijtimoiy o'zgarishlar xususida shaxsiy fikrga ega bo'lishiga xos bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlarini shakllantirish lozim. Ushbu muammoga yondashish o'qituvchi talabalarni izlab topish, ularga oqilona ko'rsatma berish, individual xususiyatlarni e'tiborga olgan holda ichki imkoniyatlarini ochish, takomillashtirish, ta'sir o'tkazuvchi omilkor vositalarni topish, ya'ni ularni jamiyat ehtiyoji, talabi, rivoji imkoniyatiga mos ravishda yo'naltirishda o'qitishning faol, innovatsion metodlaridan bevosita foydalanish talab etiladi.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy-psixologik trening faol o'qitish usullarini, maqsad va vazifalarini, guruhlar bilan ishlash qoidalarini talabalarga har qanday vaziyatlarda psixologik yordam ko'rsatish imkoniyatini ochishga yordam beradi. Shuningdek, mashg'ulot jarayonida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga aqliy intellektual rivojlanish, o'zini va boshqalarni to'g'ri idrok eta olishga qaratilgan muammolarni bartaraf etib boradi.

O'qituvchi har bir mashg'ulotda kutilgan natijaga erishish uchun bilim va mahoratini talabalar faolligini oshirishga qaratishi zarur. Buning uchun har bir trening mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazishda quyidagi tamoyillarga amal qilish ko'zda tutiladi.

1. Og'zaki yoki yozma mashg'ulotlarda, rolli o'yinlarda, to'liq faol bo'lish tamoyili. Bu mashg'ulotda guruh qatnashuvchilari rolli vaziyatlarga taqsimlanadi va o'yinda qatnashuvchilarni berilgan mezon asosida o'rganilib boriladi.

2. Faoliyat jarayoni izlanilgan tamoyil. Bu trening mashg'ulotida shunday muammolar yartilishi zarurki, barcha qatnashuvchilar bosh qotirishlari talab qilinadi.

3. Qatnashuvchilarning xatti-harakatlarini obyektivlashtirish tamoyili. Bunda, mashg'ulot jarayoni, mazmuni va qatnashuvchilarning munosabati obyektivlik darajasiga yetishi zarur. Tashkil etilgan mashq oxirigacha olib boriladi va natijaga erishiladi.

4. Mashg'ulot jarayonida sheriklik tamoyili. Qatnashuvchilar sherigining shaxsiy xususiyatlarini tan olishi fikr yuritishni, hukm va xulosa chiqarishni, idrok eta olishni, qiziqish, intilish va ehtiyojlarni hisobga olishi zarur bo'ladi<sup>1</sup>. [2.10]

Shuni alohida qayd etish lozimki, trening jarayonida muammolarni yechish, bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish ham o'qituvchidan shaxs individual psixologiyasi bilan ishlashni taqozo etadi. Trening- talabada mavjud bo'lgan yoki vujudga keladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish maqsadida bahs-munozara, o'yin va mashqlar orqali o'tkaziladigan mashg'ulotlar yig'indisi bo'lib, uni tashkil etishda quyidagi bosqichlarga amal qilish lozim.

1. Guruhni tashkil etish yoki yig'ish bosqichi.
2. Boshlang'ich bosqich.
3. Ishni olib borish bosqichi.
4. Yakunlash bosqichi.

Eng muhimi guruhni tashkil qilish bosqichi bo'lib, o'quv jarayonida trening mashg'uloti tashkil etilganda butun guruh bilan ish olib boriladi bu esa o'qituvchidan yanada kuchliroq bilim, tajriba va mahorat talab qiladi.

Trening mashg'ulotini o'tkazish davomida o'qituvchi guruhdagi har bir talabani psixik holatini oldindan his qila olishi, ular bilan muloqotga kirishish yo'llarini anglab yetishi va ijtimoiy iqtidorini tanlash imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Ijtimoiy iqtidor talabani boshqalar bilan konstruktiv o'zaro aloqalarni o'rnata olish qobiliyatida ko'rinadi va uning ijtimoiy persepsiya, ijtimoiy xulq, axloqiy muxokama, tashkilotchilik qobiliyati kabi tarkibiy elementlari mavjudligi e'tirof etiladi. Ijtimoiy iqtidor bir necha sohalarida muvaffaqiyat qozonishni ta'minlaydi. U boshqalarni tushunish, hamdardlik qilish, kabi psixologik xususiyatlarga ega bo'lish sifatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Demak, ijtimoiy iqtidor shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy iqtidorning bir ko'rinishi liderlik iqtidoridir. Ular sirasiga, o'rtadan yuqori intellekt, qaror qabul qilish ko'nikmasi; mavhum tushunchalar bilan ishlash, kelajakni ko'ra bilish, vaqtni taqsimlay olish malakasi; maqsadni aniqlash; egiluvchanlik, moslashuvchanlik; mas'uliyat hissi; o'ziga va bilimiga ishonch; qat'iyatlilik; tashkilotchilik; fikrni aniq bayon eta olish kabi jihatlar rivojlana boradi. Ushbu iqtidor turli xil bo'lib, har shaxsning individual xususiyatlardan kelib chiqib turlicha namoyon bo'ladi. Albatta, bu jarayonda talaba shaxsi aqliy intellektual rivojlanishini o'rganish o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy muhit ta'sirining rolini ham inkor etmaydi.

Shuni alohida qayd etib o'tish joizki, texnologik yondashuv asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega. Shu bilan birga, ta'lim va tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish aqliy individual psixologik xususiyatlarning shakllanishiga, ijtimoiy va emotsional intellekt turlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'lib boradi.

Ta'limning sifat va samarasini oshirib borishda talabalarning fanlarni o'zlashtirish bo'yicha yuqori natijalarga erishishda interfaol ta'lim usullari va psixologik trening mashg'ulotlarining ta'siri hamkorlikda ishlash hamda emotsional holatlarni boshqarish bo'yicha ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Bundan ko'rinadiki, talabalarning aqliy intellektual rivojlanishi uchun ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit tizim sifatida qarab, ta'lim berishning quyidagi jihatlarini inobatga olish muhim:

- o'quvchilarning aqliy-intellektual rivojlanishi xos psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatishni o'qitish jarayoni va shaxsiy kamolotida tizimli tashkil etish.

- o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, aqliy kamoloti va o'zlashtirishini ta'minlashga yo'naltirilgan psixologik-pedagogik va ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratish. Bu, o'z navbatida, talabalarning individual xususiyatlarini namoyon etishiga olib keladi.

- talabalarning aqliy-intellektual salohiyatini oshirish uchun xizmat qiladigan psixologik trening mashg'ulotlarini kengroq targ'ib qilish zarur.

Xulosa o'rnida aytish joizki, psixologik trening mashg'ulotlaridan o'rinli foydalanish talabalarning intellektual faollik darajasiga ko'proq ta'sir ko'rsatib, ularning bilim-ko'nikmalarini, ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarini hamkorlikda ishlash darajasining o'sib borishida muhim omil bo'ladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Абрамова Г.С. Практикум по возрастной психологии: Учеб. пособие. - 2-е изд. - М, 1999. - 320 с.
2. L.Beknazarova, M.Maxmudova, B.Shodiyev Ijtimoiy –psixologik trening- Toshkent.: Tafakkur Qanoti, 2016. – 112 b.
3. Практический интеллект / Под общ. ред. Р. Стернберга. СПб., 2002.